

INGLIZ TILIDA YURISH-HARAKAT FE'LLARI SEMANTIKASI

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich

Annotatsiya: Mazkur tezisda ingliz tilidagi yurish-harakat fe'llarining leksik-semantik xususiyatlari hamda ularning aspektual belgilari tahlil qilinadi. Yurish-harakat fe'llarining semantik tasniflari, aktsional xususiyatlari, chegaralanganlik va chegaralanmaganlik belgilari ilmiy yondashuvlar asosida yoritiladi. Shuningdek, ingliz tilidagi yurish-harakat fe'llarining aspektual ma'nolari hamda ularning zamon shakllaridagi ifodalanish xususiyatlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: yurish-harakat fe'llari, aspektuallik, aktsionallik, semantika, chegaralanganlik, chegaralanmaganlik, ingliz tili, leksik-semantik guruh, harakat fe'llari, aspektual vaziyat.

Yurish-harakat fe'llarining ko'plab tadqiqotlari natijasida ularning o'ziga xos belgilari, invariant semantik elementlari, ularni bir leksik-semantik guruhga birlashtirish hamda ushbu guruhlarining semantik chegaralarini aniqlashga doir zamonaviy german tilshunosligida turli tasniflar mavjud.

Masalan, P.F. Monaxov yurish-harakat fe'llarining subyektli va obyektli turlarini ajratadi. P.F. Monaxov yurish-harakat fe'llari semantikasini tahlil qilib, ularning sakkizta asosiy harakat turini ko'rsatadi:

1. Konkret yo'nalish (so'zlovchidan, so'zlovchiga, belgilangan manzilga, yuqoriga, pastga, biror predmet yonidan, ichkariga yoki tashqariga yo'nalgan harakat va boshqalar);
2. Harakat tezligi (tez, sekin va boshqalar);
3. Harakat muhiti (quruqlikda, havoda, suvda, suv ostida, relsda va hokazo);
4. Harakatlanuvchi subyektning holati (to'siqlarni yengib o'tish va boshqalar);
5. Harakat usuli (piyoda, transport vositasida, oyoq uchida, emaklab, sakrab va boshqalar);
6. Harakat natijasida yuzaga keladigan tovush bilan bog'liq harakatlar;
7. Harakatning aspektual xususiyatlari (davomiylik, natijaviylik, takroriylik va boshqalar);
8. Harakatning bajarilish xususiyatlari (tez, ohista, ehtiyotkorona, tebranib va boshqalar).

Mazkur guruhlarini tashkil etuvchi semantik elementlar kontekstda bir-biri bilan uzviy bog'lanib, o'zaro semantik munosabat hosil qiladi.

Ingliz tilidagi yurish-harakat fe'llarining shunga o'xshash tasnifini N.I. Mostovoy ham keltiradi. Uning fikricha, tilda yurish-harakatni ifodalovchi ko'plab qarama-qarshi guruhlar mavjud bo'lib, ularning asosiy belgilari yaqinlashish va uzoqlashish, torayish va kengayishdan iborat.

Muallif yurish-harakat fe'llarining aspektual xususiyatlariga alohida to'xtalmaydi. Harakatning boshlanishi, davom etishi va tugallanishi kabi belgilarni esa zamon kategoriyasi bilan bog'laydi.

S.I. Jolobov faqat ma'lum yo'nalishga ega bo'lgan yurish-harakat fe'llarini tahlil qilib, ularni semantik xususiyatlariga ko'ra yigirma uch kichik guruhga ajratadi. S.G. Pshegusova esa yurish-harakat fe'llarining valentligi va birikuv xususiyatlarini tadqiq etadi. Ushbu tadqiqotlarda ham aspektual semantikaga yetarlicha e'tibor berilmagan. N.A. Toropova nemis tilidagi yurish-harakat fe'llarini tahlil qilar ekan, ularning aspektual xususiyatlarini ham o'rganadi va quyidagi to'rt guruhni ajratadi:

1. O'timsiz yurish-harakat fe'llari - subyektning harakatni boshlashini bildiruvchi fe'llar.
2. O'timli yurish-harakat fe'llari - subyekt va obyektning bir vaqtning o'zida harakatga kirishishini bildiruvchi fe'llar.

3. O'timli yurish-harakat fe'llari - chegaralanganlik va chegaralanmaganlikni ifodalovchi fe'llar.

4. Noaniq yo'nalishli yoki muayyan yo'nalishga ega bo'lmagan harakatni bildiruvchi fe'llar.

Mazkur tadqiqotda ingliz tilidagi yurish-harakat fe'llarining leksik-semantik elementlari hamda semantik potentsiali bilan bir qatorda ularning aksional xususiyatlari ham tahlil qilinadi. Fe'llar aksional belgilariga ko'ra chegaralangan, chegaralanmagan va neytral limitativ guruhlarga ajratilib, ularning Indefinite, Perfect va Continuous zamon shakllaridagi aspektual xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Aspektual xususiyatlar deganda fe'l ifodalagan harakatning boshlanishi, davom etishi va tugallanishi tushuniladi. O'z navbatida, ushbu aspektual belgilar harakatning boshlanishi, boshlanib davom etishi, jarayon davomida yakunlanishi, to'liq tugallanishi, natijaga erishilishi hamda takrorlanishi kabi aspektual vaziyatlarga ajratiladi.

Bunday yondashuv fe'llarning kontekst ta'sirida yuzaga keladigan aspekt ma'nolarini hamda ularning aksional xususiyatlarining aspektual semantikaga ta'sirini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Monaxov P.F. Glagoly dvijeniya v sovremennom angliyskom yazyke. 1961.
2. Monaxov P.F. Semantika glagolov dvijeniya. 1969.
3. Mostovoy N.I. Semantika glagolov dvijeniya v angliyskom yazyke. 1974.
4. Jolobov S.I. Semanticheskiy analiz glagolov napravlennogo dvijeniya. 1984.
5. Pshegusova S.G. Valentnost i sochetaemost glagolov dvijeniya. 1985.
6. Toropova N.A. Aspektualnye osobennosti glagolov dvijeniya v nemetskom yazyke.
7. Rizaev Sh. Aksionallik va aspektuallik masalalari. 1999.